

CHET TILINI O'QITISHDA PSIXOLOGIK OMILLARNING O'RNI**Axmedova Muyassar Xadimatovna****Toshkent davlat pedagogika universiteti****Umumiy psixologiya kafedrasi prof. v/b., psixol.f.d.****Xamidullaeva Mumtozabonu Izzatilla qizi****Xorijiy tillar fakulteti talabasi****E-mail: muyassaraxmedova1968@gmail.com****+998946592781**

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kunda chet tillarini o'rganish qay darajada muhimligi va ularni o'rganishda qanday usullardan, qanday metodlardan foydalanilsa samaradorliroq bo'lishi ko'rib chiqilgan. Ya'ni bunda pedagogik psixologiya metodlari bilan chet tili o'qitish metodikasining o'xshash va bog'liqlik taraflari o'rganildi. Ushbu pedagogik psixologiya metodlarining xorijiy tillarni o'rganishda qanday samara berishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: *xorijiy tillar, psixologiya, pedagogik psixologiya, o'rghanuvchi motivatsiyasi, individual xususiyatlar, kommunikativ asosiylik, personalizatsiya.*

THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL FACTORS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE**Akhmedova Muyassar Khadimatovna****Tashkent State Pedagogical University****Department of General Psychology Prof. v/b., psychol. ph.d.****Khamidullaeva is the daughter of Mumtozabonu Izzatilla****Student of the Faculty of Foreign Languages****E-mail: muyassaraxmedova1968@gmail.com**

Abstract: The article examines how important it is to learn foreign languages today and what methods and methods are used to learn them more effectively. In other words, the similarities and connections between pedagogical psychology methods and foreign language teaching methods were studied. Information is given on how effective these pedagogical psychology methods are in learning foreign languages.

Key words: *foreign languages, psychology, pedagogical psychology, learner's motivation, individual characteristics, communicative priority, personalization.*

KIRISH

XXI asr - texnika taraqqiy topgan, jadal rivojlanayotgan shunday bir davrda chet tillarini o'rganish har bir inson uchun juda ham muhim hisoblanadi. Chunki hozir axborot almashinuv va internet davri. Shunday asrda yashayotgan har bir shaxs, chet tillarining dolzarbli haqida yetarli ma'lumotga ega.

Har bir yangi o'rgangan til o'rganuvchiga yangi bir eshikni, yangi bir dunyoni ochadi. Chunki til o'rganish jarayonida inson faqatgina o'sha tilning grammatikasini o'zlashtirish bilan cheklanib qolmaydi, balki o'sha millatning madaniyati, urfodatlarini o'rganadi. Yana ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy muhiti bilan ham tanishib boradi. Misol uchun o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'sha tildagi qandaydir bir matnni o'qiyotgan o'quvchi ma'lum bir miqdorda yangi ma'lumotlarga ega bo'ladi. O'qilayotgan matn aynan o'sha davlat haqida bo'lmasligi mumkin, ammo ma'lumotlar faqatgina berilayotgan xabarlardan iborat bo'lmaydi. Balki qo'llanayotgan so'zlar, iboralar, ularning tashqi olamga bo'lgan ta'siridan ham bir dunyo ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Internetdan biror bir ma'lumotni izlayotganda jahon tillari hisoblangan: ingliz, rus, nemis, fransuz kabi tillardan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki bunday tillardan izlash ko'proq va samaradorliroq natijaga erishishga imkon beradi. Ammo bu o'zbek, tojik, qirg'iz kabi tillarda tilida hech qanday ma'lumotlar yo'q degani emas. Ingliz tili dunyo tili hisoblanganligi sababli olimlar, tadqiqotchilar yoki bo'lmasa turli xil mavzuda ilmiy manbalar internet ma'lumotlar omboriga omma uchun, ya'ni butun dunyo uchun qulay bo'lgan tilda joylashtiriladi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda har bir sohani xalqaro miqyosda rivojlantirish uchun ham mutaxassisdan bir nechta tillarni o'rganish talab qilinadi. Xullas, hozirgi vaqtida chet tilining foydasi va dolzarbli haqida ham ko'p. Shuning uchun ularni o'rganishda psixologiya va pedagogik psixologiyaning ahamiyati, zarurati haqida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Pedagogik psixologiya turli tillarni o'rganishda qanday ahamiyatga ega? Pedagogik psixologiya - ta'lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiyaning bir sohasi hisoblanadi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini,

bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyashning psixologik muammolarini o'rganadi[6].

Demak pedagogik psixologiya ma'lumotni o'rganuvchiga taqdim qilish va to'g'ri ta'lim berishni va uning muammolarini o'rganadi va bu o'z navbatida shaxs taraqqiyotining yoshga xos bo'lgan xususiyatlari bilan ham uzviy ravishda bog'liq. Chunki yosh davrlarining ham sifat, ham miqdor o'zgarishlariga ega bo'lgan ko'rsatkichlari borki, amaliy psixologiya har bir yosh xususiyatlarini ana shu ikkita ko'rsatkich nuqtai nazaridan o'rganishi va shaxs xulqini boshqarish hamda ta'sir ko'rsatishda ularga tayanmog'i lozim. Umuman, psixologiyada isbot qilingan faktlardan biri shuki, turli davrlardagi inson taraqqiyoti o'ta murakkab jarayon bo'lib har bir davrning o'z qonuniyatları mavjud[3.198].

Biror bir tilni narsani o'rganish demak insonning yoshiga ham bog'liq. Misol uchun qariyalarning biron bir xususda bilimdonligi, hayotiy tajribalarining ko'pligi ma'lum bir qobiliyatlarning yo'qolishi bilan sodir bo'ladi. Ya'ni o'smirlarda til o'rganish ishtiyocoq, strukturaviy va lug'aviy xususuyatlarni o'zlashtirishga qobiliyatli bo'lsa yetuklik davridagi insonlarda bu xususiyat yo'qola boshlaydi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda quyida biz boshlang'ich sinflarda chet tilini o'qitishni turli xil psixologik metodlar orqali ko'rib chiqamiz.

Chet tilini o'qitishda klassik grammatika metodi, konversatsiya metodi, audio-visual metod, immersiya metodi, o'zlashtirilganlik kabi metodlardan foydalaniladi, Ammo bolalarga xorijiy tillarni o'qitishda bu metodlar biroz farqlanadi. Psixologiya fanida asosiy uchta faoliyatning turi mavjud bo'lib, bular: mehnat faoliyati, o'yin faoliyati, ta'lim faoliyati. Biz esa o'yin faoliyatidan foydalamiz.

Bolalarning diqqatini bir yerga jalgan qilish uchun o'quv o'yinlari, interaktiv o'yinlar va onlayn o'yinlardan foydalanish mumkin. Bu o'yinlarda turli xil rangli tarqatmalar, musiqa, koptok kabilardan foydalanish mumkin. Chunki yosh bolalarning psixologiyasi shunday rangli va o'ziga jalgan qiluvchi o'yinchoq va buyumlarga moyil bo'ladi.

Multflmlar, qisqa metrajli videolar, multimedia dasturlari bolalarda eshitish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantiradi va yangi so'zlarni tezroq yodlashga yordam beradi. Negaki bolalar uchun multfilmlar qiziqarli hisoblanadi. Shuning uchun ham bolalar multfilmning mazmunini tezroq tushunish uchun notanish so'zlarni bilishga harakat qiladilar.

Maxsus darsliklar va tegishli uyushmalar tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv darsliklari ham samaradorlikni oshiradi. Ya’ni mutaxassislar aynan yosh bolalarning psixologiyasiga mos ravishda, ularning qabul qilish jarayonini hisobga olgan holda darsliklarni ishlab chiqadilar va bu o‘qituvchilarga juda ham katta yordam beradi.

Darsliklardan foydalanish jaranida pedagoglarga pedagogik psixologiyaning muhim metodlaridan biri hisoblangan kuzatish metodi juda ham kerak bo‘ladi. Ular bu metod orqali qaysi bola qaysi mavzuda qiynalayotganini yoki bir bolani muntazam kuzatish natijasida nima uchun gapishtirishga qiynalayotganini, qoidani yodlashga qiynalayotganini bilish mumkin bo‘ladi. Lekin bu metoddan foydalanishning bir sharti bor: bola o‘zi kuzatlayotganini sezmasligi kerak. Aks holda bu bolaning o‘zini bosim ostida his qilishi va buning natijasida o‘zlashtirish darajasining pasayishiga olib keladi.

Test metodi - bu eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlardan biri hisoblanib, savolvjavob, test olish kabilarni o‘z ichiga oladi. Pedagog ushbu metoddan foydalanganda turli xil xil sovg‘alar berish orqali o‘quvchini rag‘batlantirishi mumkin. Hozirgi kun tili bilan aytganda motivatsiya berishi mumkin. Psixologiyadan ma’lumki, motiv - biror kishini biror bir ishni qilishga turki berish hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun esa kichik sovg‘alar katta turtki, ya’ni katta va kuchli motivatsiya berishi mumkin.

Chet tilidagi qo‘shiqlar. Ma’lumki, yosh bolalar qo‘shiqlarni tez eslab qolishga qobiliyatli bo‘lishadi. Shuning uchun ham ularga dars jarayonida qo‘shiqlar qo‘yib berish tavsiya etiladi. Bu ular eshitish va erkin gapishtirishga yordam beradi va darsning zerikarli o‘tmasligini ta’minlaydi. Va bu muhit ularni xorijiy til muhitiga yaqinlashtiradi.

Xorijiy tilni o‘rgatish jarayonida nazariy bilimlar albatta ona tilidan kamroq bo‘lgan hajmda bayon etiladi. Ya’ni har bir ma’lumot haqida boshidan batafsil tushuntirib beriladi. Shu asosda kommunikatsiyaning butunlay o‘zgacha sistemasi shallantiriladi. Ta’lim berishga mo‘lljallangan qoidalar. ya’ni nazariy bilimlar amaliy ko‘nikma va malakalarning egallashni yengillatish kabi maqsadlarga bo‘ysundiriladi. Maqsadning ro‘yobga chiqishi bevosita ta’lim-tarbiyaga o‘z ta’sirini o‘tkazadi, o‘quv jarayonidagi nutqni kommunikatsiyada axborot almashinish birlamchi vazifaga aylanadi.

Maktab sharoitida ona tilini o‘qitish o‘zga tillarni o‘rganishdan shu bilan sezilarli farq qiladiki, tillarning kommunikativ funksiyasi va ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati, umuman qaralganda barchasiga tegishli, biroq bunday funksiyalarning bajarish

me'yori har bir tilda turlicha. Misol uchun "Ona tili" o'quv predmetini o'rganish jarayonida o'quvchilar uchun uning kommunikativ va ta'lism-tarbiyaviy funksiyalari bir xilda ro'yobga chiqadi.

Chet tilida esa muloqot, amaliy qo'llanish yetakchi funksiyani bajaradi, ta'lim va tarbiya vazifalari unga bog'liq hilda ro'yobga chiqadi. Chunki ona tilini o'quvchi maktabga chiqqunga qadar amaliy shaklda egallaydi. Maktabga chiqqach esa yozish va o'qish malakalari shakllantiriladi. Til nazariyalari maxsus e'tibor bilan o'rgatiladi. Shuning uchun ham chet tilini bolalarga o'rgatish jarayonida amaliy, gapirish ko'nikmalariga ham asosiy e'tibor qaratiladi[4.41].

XULOSA

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan ko'rinish turibdiki, umuman olganda psixologiya va pedagogik-psixologiyaning chet tilini o'qitishdagi o'rni beqiyosdir. Chunki psixologiya insonni har tomonlama o'rganadi. Shuning bilimni o'zlashtirish xususiyatlarini ham tadqiq etadi. Uchun ham pedagogika va psixologiya tushunchalari bir-biriga uzviy bog'liqdir. O'qituvchi o'rganuvchining qobiliyati, yoshga xos jixatlari, motivatsiyasi, kommunikativ, individual xususiyatlarini inobatga oladi. Bundan kelib chiqqan holda har bir metodning afzalliklari, chegaralarini hisobga olib, eng maqbul va muvofiq metodlarni tanlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedova M.X. Zamonaviy pedagog nutqi // Academic research in educational sciences 2 (CSPI conference 1), 2021. B.1209-1213.
2. Axmedova M., Aripova M. Ta'lism jarayonida o'yin usullarini qo'llashning pedagogik-psixologik mohiyati // Zamonaviy ta'lism 2015. № 8. 33-37.
3. Maxmudov Y.U., Xudoyqulov X.J., Xolmirzayev E.J., Xolmirzayev Z.J. Pedagogika va psixologiya. Toshkent. 2011. 238 bet. B.198.
4. Jalolov J. Chet tilini o'qitish metodikasi Toshkent. 2012. «O'qituvchi» nashriyoti. 423 bet. B.41.
5. Ahmedova M. Kh. [Psycholinguistic features not literary words](#) // Linguistics and Culture Review. 2021/11/18. 5. S2. R.1115-1121.
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Pedagogik_psixologiya.